

“BOBURNOMA”DAGI PERIFRAZALI TOPONIM, FITONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Bozorova Shahnoza Xolmamatovna

QarMII akademik litseyi o‘qituvchisi

Guljon0707@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma”dagi perifrazali toponim, fitonimlarning lingvopoetik xususiyatlari va ularning tasnifi haqida ilmiy manbalarga tayangan holda tahlillar keltirilgan hamda Boburning lingvistik va poetik birlklarni qo‘llash mahorati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: memuar asar, geografik o‘rni, toponim, shahar nomi

“Boburnoma” asari o‘ziga xos memuar asardir. Unda ma’lum bir vaqt oralig‘iga oid voqeа hikoya qilinadi, voqeа sodir bo‘lgan makonga tavsif beriladi. “Boburnoma”dagi joy nomlarini o‘rgangan tadqiqotchi I.Boltaboyeva ular ifodalangan obyektlarning turiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratgan: *Mamlakatlar nomi* — *Afg‘oniston, Sindiston, Mo‘g‘uliston...*; *shahar nomlari* — *Dehli, Urganch, Kesh, Buxoro..., qishloq va kent nomlari* — *Beshkent, Arshakent, Dehi Afg‘on, Dehi Ya‘qub...; qal‘a va qo‘rg‘on nomlari* — *Qal‘ayi Zafar, Qal‘ayi Ixtijriddin, Olaqo‘rg‘on, Toshqo‘rg‘on...; qo‘riq va yaylovlar nomlari* — *Qamariy o‘langi, Qushxona o‘langi, Bo‘rka yayloqi...; darvozalar nomi* — *Darvozayi Qipshoq, Darvozayi Malik, Ohanin darvozasi...; ko‘priklar nomlari* — *Puli Salor, Puli Ravon, Shfpon ko‘prik...; oronimlar* — *Olatog‘, Mehtar Sulaymon tog‘i...gidronimlar –Gang daryosi, Amu daryosi* kabi.

Har bir makonning geografik o‘rni, o‘simlik va hayvonot dunyosi, xalqining urf-odatlari, inshootlari kitobxonga tanishtiriladi. Bu esa nafaqat kitobxon uchun, balki tilshunoslik uchun ham muhim o‘rganish manba hisoblanadi. Asarda tilshunoslik birligi perifraz(a)ning (yun. peri – yaqin, atrofida, phrasis – gapiraman) go‘zal namunalarini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, toponim va fitonimlarda oid tavsiflarda. Masalan: **Samarqand** – Baldayi

mahfuza. *Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila mung‘a dast topmag‘on uchun baldayi mahfuza derlar.* [43-bet].

Chaqor – *Samarqand tosh qo‘rg‘oni Samarqandning tosh qo‘rg‘onida – Chaqarda bir madrasa solibtur.* [44-b.]

Obirahmat – Qora suv. *Qora suvkim, Obirahmat ham derlar. Konigilning o‘rtasidin oqar, yeti sekkiz tegirmon suyi bo‘lg‘oy.* [46-bet].

Sirdaryo – Tamom qumg‘a singan daryo. **Sirdaryo** – *Hech daryoga qotilmas Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas.* [5-bet].

Andijon – Farg‘ona viloyatining poytaxti. *Janubiy tarafidagi kasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubtur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur.* [5-bet]

Axsi – Tosh qo‘rg‘on. *Aksi qo‘rg‘onidag‘ilarni zarbi rost arkka tiqib, Ibrohim Soru va Vays Log‘ariy va Seydiy Qaro boshlig‘larni tilab , bu tosh qo‘rg‘ong‘a kiyurdilar.* [58-bet].

O‘sh – Ahmad Tanbal viloyati. *Sulton Ahmad Tanbal o‘z viloyatig‘a – O‘shg‘a bordi.* [59-bet].

Rabotak – Ikki suv orasi. *Bir yerda qishlamoq kerakkim, cherik eli oshliqsizlikdan ojiz bo‘lmag‘ay va g‘anim kishisig‘a ham qabal yo‘sunluq ojizlig‘i bo‘lg‘ay. Bu maslahat uchun Rabotak o‘rchinidakim , bu Rabotak o‘rchinini Ikki suv orasi ham derlar.* [65-bet].

Daxkat – O‘ratepaning ko‘hnoya kenti. *Necha kundin keyin Daxkat O‘ratepaning ko‘hnoya kent-laridindur, ulug‘ tog‘ning tubida tushubtur.* [87-bet]. **Lomg‘on** – Qorliq tog‘. *Qorliq tog‘ Lamg‘om tog‘idur.* [124-bet].

Bog‘i Kalon – Ulug‘bek Mirzoning mansub bog‘i. *Bu kentta Bog‘i Kalon otliq Ulug‘bek Mirzoning bir mansub bog‘i bor edi. Men egalarig‘a baho berib oldim.* [124-bet].

Bomiyon – Berk tog‘. *Yana Bomiyon tog‘idur. Bu tog‘ berk tog‘ voqe bo‘lubtur. Harmand va Sind va Dug‘oba, Kunduz va Balxob suyi bu tog‘din chiqar.* [124-b.]

Farmul – Muhaqqar yer. *Yana bir Farmul tumanidur. Muhaqqar yeredur.* [127-bet]

Mehrigiyoh – Ayiq o‘ti. *Ba’zi kitoblarda bitibdurlarkim, “yabruhus-sanam” bu tog‘lardadur, vale bu muqatta hech eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettisuvning tog‘larida bo‘lur, ul el “ayiq o‘ti” derlar, mehrigiyoh xosiyatliq, g‘olibo mehrigiyohdur, ul el ot bila ayturlar.* [1. 8-bet]

“Mir Temuriy” – Go‘shti to‘rt ilik qovun. *Agarchi Farg‘ona viloyatidin Axsining bir nav qovunikim, “mir temuriy” derlar, muning qovunidin chuchukroq va nozukroq bo‘lur, vale ul go‘shti to‘rt ilik kelg‘och qovundurur.* [1.47-bet]

Nilufar – Kaval kikriy. *Yaxshigina nima gulikim, nilufar bo‘lg‘ay. Hindustoniy “kaval kikriy” – der...* [338-bet].

Xuroson – G‘ayri Hindiston

Ajam – G‘ayri Arab. *Hindiston g‘ayri Hindistonne Xuroson der. Nechukkim, arab g‘ayri Arabni Ajam der.* [117-bet]. Bunday holatdagi perifrazalar, ya’ni shakldoshlik hosil qilgan perifrazalarni Bobur ijodining gultoji bo‘lgan “Boburnoma” asarida ham uchratishimiz mumkin. Undan tashqari Darai Zindon, Darai So‘f va boshqalar keltirilgan. Ular asar obrazliligini va ta’sirchanligini yanada oshiradi, tasviriy bo‘yoqdorlikni esa kuchaytiradi.

“Boburnoma”, yuqorida aytib o‘tilganidek, juda serqirra asar namunasi. Unda har sohaning eng nozik jihatlarigacha ochib berilgan. Asarda XIV asrda so‘zlashuv nutqida qo‘llanilgan go‘zal perifrazalarning qo‘llanilganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Ular shoir mahoratining ne chog‘liq buyukligidan dalolat beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1989. -368 b. Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.fal.dok(PhD) disser... – Toshkent, 2022.